

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI  
KO'P KVARTIRALI UYLARNI BOSHQARISH TIZIMI  
TAKOMILLASHTIRILISHI MUNOSABATI BILAN O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA O'ZGARTISH VA  
QO'SHIMCHALAR KIRITISH TO'G'RISIDA**

Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 22-fevralda qabul qilingan  
Senat tomonidan 2022-yil 28-aprelda ma'qullangan

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2015-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, № 3, 6-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 9, 193-modda, № 12, 269-modda; 1996-yil, № 5-6, 69-modda, № 9, 144-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 4-5, 126-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 3, 38-modda, № 5-6, 102-modda, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; 2000-yil, № 5-6, 153-modda, № 7-8, 217-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda, № 9-10, 165, 182-moddalar; 2002-yil, № 1, 20-modda, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 5, 67-modda, № 9-10, 149-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda, № 5, 90-modda, № 9, 171-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 312-modda, № 12, 413, 417, 418-moddalar; 2006-yil, № 6, 261-modda, № 9, 498-modda, № 10, 536-modda, № 12, 656, 659-moddalar; 2007-yil, № 4, 158, 159, 164, 165-moddalar, № 9, 416, 421-moddalar, № 12, 596, 604, 607-moddalar; 2008-yil, № 4, 181, 189, 192-moddalar, № 9, 486, 488-moddalar, № 12, 640, 641-moddalar; 2009-yil, № 1, 1-modda, № 9, 334, 335, 337-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 462, 468, 470, 472, 474-moddalar; 2010-yil, № 5, 175, 179-moddalar, № 6, 231-modda, № 9, 335, 339, 341-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 468, 473, 474-moddalar; 2011-yil, № 1, 1-modda, № 4, 104, 105-moddalar, № 9, 247, 252-moddalar, № 12/2, 365-modda; 2012-yil, № 4, 108-modda, № 9/1, 242-modda, № 12, 336-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda, № 5, 130-modda, № 9, 244-modda, № 12, 341, 343-moddalar; 2015-yil, № 6, 228-modda, № 8, 310, 312-moddalar, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 1, 2-modda, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 4, 137-modda, № 6, 300-modda, № 9, 510-modda, № 10, 605-modda; 2018-yil, № 1, 1, 4, 5-moddalar, № 4, 224-modda, № 7, 430, 431, 432-moddalar, № 10, 671, 673, 679-moddalar; 2019-yil, № 1, 1, 3, 5-moddalar, № 2, 47-modda, № 3, 161, 165, 166-moddalar, № 5, 259, 261, 267, 268-moddalar, № 7, 386-modda, № 8, 469, 471-moddalar, № 9, 591, 592-moddalar, № 10, 674, 676-moddalar, № 11, 787, 791-moddalar, № 12, 880, 891-moddalar; 2020-yil, № 1, 4-modda,

Nº 3, 203, 204-moddalar, Nº 7, 449-modda, Nº 9, 539, 540-moddalar, Nº 10, 593, 596-moddalar, Nº 11, 651-modda, Nº 12, 691-modda; 2021-yil, Nº 1, 5, 7, 12, 13, 14-moddalar, Nº 2, 142-modda, Nº 3, 217-modda, Nº 4, 290, 293-moddalar, 4-songa ilova, Nº 8, 800, 802, 803-moddalar, Nº 9, 903-modda, Nº 10, 966, 967, 968, 973-moddalar, Nº 11, 1066-modda; 2022-yil, Nº 1, 1, 2-moddalar) quyidagi o'zgartishlar va qo'shimcha kiritilsin:

1) 159-modda quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**"159-modda. Turar joylarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalarini, uy-joy fondidan texnik foydalanish qoidalari va normalarini, ko'p kvartirali uylarni boshqarish qoidalari buzish"**

Turar joylarni saqlash va ulardan foydalanish, umum foydalanadigan joylarni sanitariya holatida saqlash qoidalari buzish, uy-joy fondidan texnik foydalanish qoidalari va normalarini buzish (bundan ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar mustasno), ko'p kvartirali uylardagi turar joylarda chorva mollarni, xuddi shuningdek odamlarning salomatligiga xavf soluvchi hayvonlarni boqish —

fugorolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ko'p kvartirali uylarni boshqarish qoidalari buzish —

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh barvari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Ko'p kvartirali uylardagi tayanch va (yoki) to'siq konstruksiyalarni qonunchilikni hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni buzgan holda o'zgartirish va (yoki) rekonstruksiya qilish, shu jumladan ko'p kvartirali uylarda va ko'p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalarida o'zboshimchalik bilan imoratlar (inshootlar) qurish ishlarini amalga oshirish, —

fugorolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — qirq baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbazarlikni (to'siq konstruksiyalarga oid qismida) birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u ko'p kvartirali uydagi to'siq konstruksiyalarning amalga oshirilgan o'zgartirilishini yoki ularni rekonstruksiya qilish tufayli yo'l qo'yilgan buzilishlarni, ko'p kvartirali uyga tutash yer uchastkasida o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni (inshootlarni), shuningdek ularning oqibatlarini ixtiyoriy ravishda bartaraf etsa, javobgarlikdan ozod etiladi";

2) 245-moddaning:

birinchi qismidagi “158, 159-moddalarida” degan so’zlar “158-moddalarida, 159-moddasining birinchi qismida (bundan ko’p kvartirali uylardagi turar joylarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalarini, ko’p kvartirali uy-joy fondidan texnik foydalanish qoidalari va normalarini buzish hollari mustasno)” degan so’zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi qismidagi “99-moddasida (qurilish sohasida nazorat qilish inspeksiyasiga oid qismida), 175-moddasining birinchi, uchinchi va oltinchi qismlarida va 283-moddalarida” degan so’zlar “99-moddalarida (qurilish sohasida nazorat qilish inspeksiyasiga oid qismida), 159-moddasining birinchi qismida (O’zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish vazirligi huzuridagi Ko’p kvartirali uylardan foydalanish sohasini nazorat qilish inspeksiyasiga oid qismida), 175-moddasining birinchi, uchinchi va oltinchi qismlarida va 283-moddasida” degan so’zlar bilan almashtirilsin;

3) quyidagi mazmundagi 266<sup>s</sup>-modda bilan to’ldirilsin:

**“266<sup>s</sup>-modda. O’zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish vazirligi huzuridagi Ko’p kvartirali uy-joy fondidan foydalanish sohasini nazorat qilish inspeksiyasi**

O’zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish vazirligi huzuridagi Ko’p kvartirali uy-joy fondidan foydalanish sohasini nazorat qilish inspeksiyasiga, shuningdek uning hududiy inspeksiyalariga ushbu Kodeks 159-moddasining birinchi (ko’p kvartirali uylardagi turar joylarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalarini, ko’p kvartirali uy-joy fondidan texnik foydalanish qoidalari va normalarini buzishga oid qismida), ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbazarliklar to’g’risidagi ishlarni taalluqlidir.

O’zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish vazirligi huzuridagi Ko’p kvartirali uy-joy fondidan foydalanish sohasini nazorat qilish inspeksiyasi nomidan ma’muriy huquqbazarliklar to’g’risidagi ishlarni ko’rib chiqishga va jarima solish tariqasidagi ma’muriy jazo choralarini qo’llashga quyidagilar haqli:

O’zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish vazirligi huzuridagi Ko’p kvartirali uy-joy fondidan foydalanish sohasini nazorat qilish inspeksiyasi boshlig’i va bo’lim boshliqlari;

O’zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish vazirligi huzuridagi Ko’p kvartirali uy-joy fondidan foydalanish sohasini nazorat qilish inspeksiyasining hududiy inspeksiyalari boshliqlari”.

**2-modda.** O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi qabul qilingan O'RQ-599-sonli Qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Soliq [kodeksiga](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, 12-songa 1-ilova; 2020-yil, № 3, 198-modda, № 10, 593-modda, № 11, 652-modda, № 12, 690, 691-moddalar; 2021-yil, № 1, 6-modda, № 4, 294-modda, 4-songa ilova, № 8, 800-modda, № 9, 901-modda, № 10, 968, 969, 972, 973-moddalar, № 12, 1199-modda) quyidagi qo'shimchalar va o'zgartish kiritilsin:

1) 243-moddaning [birinchi qismi](#) quyidagi mazmundagi 16<sup>1</sup>-band bilan to'ldirilsin:

"16) boshqaruvchi tashkilotlar yoki ko'p kvartirali uylarni boshqaruvchilar tomonidan umumiy mol-mulkni boshqarish, unga texnik xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash, shuningdek ko'p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalarini obodonlashtirish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar hamda bajarilayotgan ishlar";

2) [304-modda](#) quyidagi mazmundagi 6<sup>1</sup>-band bilan to'ldirilsin:

"6) boshqaruvchi tashkilotlar yoki ko'p kvartirali uylarni boshqaruvchilar tomonidan umumiy mol-mulkni boshqarish, unga texnik xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash, shuningdek ko'p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalarini obodonlashtirish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlardan hamda bajarilgan ishlardan olingan mablag'lar";

3) 411-modda uchinchi qismining [2-bandi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"2) uy-joy-kommunal xo'jaligining va belgilangan maqsadi bo'yicha foydalaniadigan boshqa umumfuqaroviya ahamiyatga molik shahar xo'jaligi obyektlari. Uy-joy-kommunal hamda boshqa umumfuqaroviya ahamiyatga molik shahar xo'jaligi obyektlari jumlasiga shaharlar va shaharchalarni sanitariya jihatdan tozalash, obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish obyektlari, tashqi yoritish, kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun va aholiga vodoprovod (suv olish va tozalash inshootlari bilan), kanalizatsiya (tozalash inshootlari bilan), gaz, qozonxonalar hamda issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlar (ularning inshootlari bilan), shuningdek uy-joy-kommunal xo'jaligi obyektlariga texnik jihatdan xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash, boshqaruvchi tashkilotlar yoki ko'p kvartirali uylarni boshqaruvchilar tomonidan umumiy mol-mulkni boshqarish, unga texnik xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash, ko'p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalarini obodonlashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun mo'ljallangan binolar kiradi";

4) 426-modda ikkinchi qismining 12-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12) ko‘p kvartirali uylar va yotoqxonalar egallagan yerlar, shuningdek ko‘p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalari, bundan yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari egallagan yer uchastkalari mustasno”.

**3-modda.** O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvarda qabul qilingan “Davlat boji to‘g‘risida”gi O‘RQ-600-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 1, 1-modda, № 3, 201-modda, № 5, 298-modda, № 10, 593-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 13-modda, 4-songa ilova, № 7, 661-modda, № 8, 800, 803-moddalar, № 10, 968-modda) quyidagi qo‘srimchalar kiritilsin:

1) 8-moddaning birinchi qismi quyidagi mazmundagi 13<sup>1</sup>-band bilan to‘ldirilsin:

“13<sup>1</sup>) O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi huzuridagi Ko‘p kvartirali uy-joy fondidan foydalanish sohasini nazorat qilish inspeksiyasi va uning hududiy inspeksiyalari — ko‘p kvartirali uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish sohasida o‘z zimmasiga yuklatilgan vakolatlarga muvofiq sudlarga ko‘rib chiqish uchun kiritiladigan da‘volar yuzasidan”;

2) 9-moddaning birinchi qismi quyidagi mazmundagi 14<sup>2</sup>-band bilan to‘ldirilsin:

“14<sup>2</sup>) O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi huzuridagi Ko‘p kvartirali uy-joy fondidan foydalanish sohasini nazorat qilish inspeksiyasi va uning hududiy inspeksiyalari — ko‘p kvartirali uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish sohasida o‘z zimmasiga yuklatilgan vakolatlarga muvofiq sudlarga ko‘rib chiqish uchun kiritiladigan da‘volar yuzasidan”;

3) 10-moddaning birinchi qismi quyidagi mazmundagi 10<sup>4</sup>-band bilan to‘ldirilsin:

“10<sup>4</sup>) O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi huzuridagi Ko‘p kvartirali uy-joy fondidan foydalanish sohasini nazorat qilish inspeksiyasi va uning hududiy inspeksiyalari — ko‘p kvartirali uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish sohasida o‘z zimmasiga yuklatilgan vakolatlarga muvofiq sudlar ko‘rib chiqishi uchun beriladigan arizalar yuzasidan”.

**4-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini

hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

**5-modda.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

**6-modda.** Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2022-yil 31-may,  
O'RQ-773-son

*(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/773/0461-son)*